INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT
07.00.00 – TARIX FANLARI

SIRDARYO QUYI HAVZASI VUJUDGA KELISHI VA GEOGRAFIK HOLATINING SHAKLLANISH JARAYONI

Yuldasheva Nilufar,
Urganch innovatsion universiteti magistri

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20427729

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Sharqiy Orolbo‘yi tekisligining vujudga kelishi, uning geografik holati shakllanishidagi tarixiy bosqichlar hamda hududning antropogen landshafti tahlil qilingan. Sirdaryo quyi havzasining tarixiy-geografik taraqqiyotida daryo omilining o‘rni va hududning qadimgi aholi xo‘jaligiga ta’siri ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *Vinogradov A.V., Itina M.A., Kes A.S., Vaynberg B.I., Levina L.M., Yusupov A., Osiyo, O‘rta Osiyo, O‘zbekiston, Qizilqum, Sirdaryo, neolit, Saksavul, Tamin, Kosmola, Aymara, Jalpak.*

Аннотация. *В статье анализируются процесс возникновения и формирования низменности Восточного Приаралья, особенности ее географического положения и антропогенный ландшафт. Раскрыта роль речного фактора в историко-географическом развитии и освоении низовьев Сырдарьи древним населением.*

Ключевые слова: *Виноградов А.В., Итина М.А., Кесь А.С., Вайнберг Б.И., Левина Л.М., Юсупов А., Азия, Средняя Азия, Узбекистан, Кызылкум, Сырдарья, неолит, Саксавул, Тамин, Космола, Аймара, Жалпак.*

Abstract. *This article analyzes the emergence and formation process of the Eastern Aral Sea lowland, the historical stages of its geographical location, and the region’s anthropogenic landscape. The role of the river factor in the historical and geographical development of the lower Syr Darya basin and its impact on the economy of the ancient population are revealed.*

Keywords: *Vinogradov A.V., Itina M.A., Kes A.S., Vaynberg B.I., Levina L.M., Yusupov A., Asia, Central Asia, Uzbekistan, Kyzylkum, Syr Darya, Neolithic, Saksavul, Tamin, Kosmola, Aymara, Jalpak.*

Kirish. Osiyo va Yevropaning o‘ziga xos geografik xususiyatlarini o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston hududi fizik-geografik nuqtai nazardan xilma-xildir. Xususan, uning shimoli-sharqiy tekisligi yer osti tebranishlarining bir necha marotaba takrorlanishi natijasida shakllangan. Mazkur tekislik joylashuvining o‘ziga xos ijobiy va salbiy tomonlari O‘rta Osiyo fizik-geografik xaritasida yaqqol ko‘zga tashlanadi.

1.Ijobiy xususiyatlari:

-Qulay tabiiy sharoiti: Tabiat in'omi sifatida shakllangan, daryo oqimlari ta'sirida vujudga kelgan g‘oyat sernam va xo‘jalik uchun unumdor tekisliklarning mavjudligi;

-**Xo‘jalik taraqqiyoti uchun zamin:** Qadimiy jamoalarning ushbu vohalarda muqim joylashib, boy tabiiy resurslardan oqilona foydalangan holda ilk xo‘jalik turlarini (ovchilik, baliqchilik, chorvachilik va ibtidoiy ziroatkorlik) shakllantirishi hamda bu an'analarni keyingi tarixiy davrlarda barqaror rivojlantirish imkoniyatining kengligi;

-**Erkin migratsiya imkoniyati:** Qadimdan mazkur hududda o‘rnashgan avtoxton aholining tarixiy zarurat, iqlim o‘zgarishlari yoki demografik ehtiyojlar taqozosi bilan

qo‘shni hududlarga erkin migratsion jarayonlarni amalga oshirish uchun tabiiy to‘siqlarning yo‘qligi;

-**Barqaror gidro-zaxira:** Hayot manbai hisoblangan suv resurslarining uzluksiz va doimiy ta'minotga ega ekanligi;

-**Madaniy-iqtisodiy integratsiya:** Mintaqaning janubiy hududlarida istiqomat qilgan o‘troq va ko‘chmanchi qabilalar bilan o‘zaro manfaatli iqtisodiy-madaniy aloqalarni, xususan, faol ayirboshlash savdosini yo‘lga qo‘yish imkoniyatining mavjudligi.

Noijobiy xususiyatlari:

-**Geografik ochiqlik:** Mintaqaning to‘rt tomoni ochiq tekislikdan iborat bo‘lib, tabiiy himoya to‘siqlariga ega emasligi;

-**Iqlimiy zaiflik:** Hududning ochiqligi sababli qish faslida shimoldan keladigan izg‘irin va sovuq havo oqimlarining mintaqaga to‘siqsiz, bemalol kirib kelishi;

-**Tog‘ tizmalarining yo‘qligi:** Tabiiy mudofaa inshooti vazifasini o‘taydigan va mintaqa iqlimini mo‘tadillashtiruvchi osmono‘par baland tog‘ tizmalaridan xoli ekanligi;

-**Tranzit yo‘llaridan uzoqligi:** Qadimiy xalqaro karvon yo‘llari (jumladan, Buyuk Ipak yo‘lining tranzit tarmoqlari) chorrahasidan chetda joylashganligi va hududdan yirik savdo yo‘llariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatining cheklanganligi.

Mazkur maqolada hududning aynan shu kabi o‘ziga xos geografik joylashuvi, tarixiy jarayonlar davomida shakllangan antropogen landshafti hamda mintaqa ekologiyasiga oid dolzarb masalalarni kompleks o‘rganish va tahlil qilish asosiy maqsad sifatida inobatga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ushbu mavzuning mazmun-mohiyatini o‘tgan asr adabiyotlari hamda XXI asr boshlarida chop etilgan nashrlardagi tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirib, nazariy-qiyosiy tahlil qilish asosida yoritish mumkin. Sirdaryo quyi havzasida qadimdan joylashgan ibtidoiy insonlarning tabiiy manbalardan foydalanib geografik muhitga moslashishi va xo‘jalikning barcha sohalarini rivojlantirish borasidagi tarixiy tajribasini o‘rganishda, Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining 1992-yilgacha olib borgan tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekspeditsiya xodimi A.V. Vinogradov tadqiqotlariga ko‘ra, miloddan avvalgi V-IV ming yilliklarda Sirdaryo quyi havzasining shimoliy va sharqiy hududlari insonlar tomonidan o‘zlashtirilgan (Saksavul, Tamin, Kosmola, Aymara, Jalpak makonlari misolida) [1, 2]. M.A. Itina monografiyasida esa bronza davrida neolit davri urug‘ jamoalarining xo‘jalik an’analari saqlanib qolgan manzilgohlar arxeologik jihatdan chuqur o‘rganilgan [3].

A.S. Kes o‘zining paleogeografik tadqiqotlarga bag‘ishlangan maqolasida Amudaryo quyi havzasi xaritasida shimoliy Oqchadaryo va quyi Sirdaryo havzalarini tasvirlab bergan [4]. B.I. Vaynberg qadimgi Sirdaryo havzasining geografik holatiga

e’tibor qaratib, uning sharqda Orol dengizi qirg‘og‘iga tutashgani, janubda Qizilqum, shimolda Qizil o‘zan bilan, shuningdek, Inkordaryo irmog‘i bilan chegaralanganini ta’kidlaydi [5, 7]. B.I. Vaynberg, shuningdek, hududning tabiiy resurslari ko‘chmanchi chorvadorlar uchun juda qulay ekanligini izohlagan. L.M. Levina Xorazm ekspeditsiyasining Sharqiy Orolbo‘yi hududida olib borgan qazishmalari natijalariga tayangan holda, ilmiy muomalaga "Sirdaryo quyi havzasi sharqiy tekisligi" atamasini kiritgan [6]. Milliy tadqiqotlarimizda ham Sirdaryo daryosining aholi joylashuvi va xo‘jalik shakllanishidagi ta’siri doimiy e’tiborda bo‘lgan [8].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik, obyektivlik, xronologik izchillik tamoyillariga amal qilindi. Geologiya, geografiya va arxeologiya fanlari yutuqlariga tayangan holda nazariy-qiyosiy tahlil, mantiqiy xulosa chiqarish hamda ma’lumotlarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘tgan asr Xorazm ekspedisiyasi xodimlari asarlari va milliy mustaqillik yillari tadqiqotchilar asarlarida qayd qilingan tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirgan holda, Sirdaryo quyi havzasi sharqiy tekisligining geografik xususiyatlari, antropogen landshaftining vujudga kelishi, shakllanish va rivojlanish bosqichlari tahlil qilindi. Bunda eng avvalo geografik o‘rin xususiyatlari insoniyat hayoti uchun qay darajada qulay o‘rin bo‘lganligi masalasiga e’tibor qaratildi.

O‘rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududi geografik manzarasini belgilashda Sirdaryoning oqim harakati muhim ahamiyat kasb etadi. Sirdaryo Qirg‘iziston Respublikasi hududida osmono‘par tog‘lardan oqib tushgan suvlarni qamrab olib, Farg‘ona vodiysi orqali oqib o‘tishida vohaning qulay iqtisodiy manbasini yaratgan asosiy suv arteriyasi hisoblanadi. Tarixiy manbalarda daryo turli davrlarda Yaksart, Tanais, Danu, Xashart, Injug‘uz, Yenchu o‘g‘uz, Qanqar, Kasariy, Xasariy, Obi Farg‘ona, O‘zgan, Xo‘jand suvi, Banoket, Silis va Sayxun kabi ko‘plab toponimlar bilan atalgan. Sirdaryoning Farg‘ona vodiysidan chiqib, Mirzacho‘l dashtini ikkiga ajratgan holda suvini Orol dengiziga olib kelganlik masalalari tahlil qilinib, quyidagi amaliy natijalar qayd etildi:

Natijalar quyidagi xolatlari qayd qilingan. Sirdaryo geologik davrning neogen davridan boshlab, osmono‘apr tog‘lardan oqib tushgan jilg‘alarni qamrab olgan Sirdaryo, Farg‘ona vodiysini suv bilan ta’minlagan. Sirdaryo Markaziy Farg‘onada faoliyat olib borishi jarayonida bir qator soylarni shakllantirgan, unda axolining foydalanish imkoniyati masalalari qayd qilindi.

-Farg‘ona vodiysida 1,2 million yil ilgari xududdan chiqib, keng tekislikda xarakat qilib, shimolda mavjud bo‘lgan botiqga suvini olib kelishini ochiqlagan. Sharqiy Orolbo‘yi tekisligi vujudga kelishi, shakllanishida Sirdaryo, uning eski Daryoliq, Janodaryo,

Quvondaryo va Inkordaryolar irmoqlari xam aktiv qatnashgan, tekislikni shakllanishida muxim axamiyat kasb etgan.

Xulosa va takliflar. Yuqorida qayd qilingan fikr-mulohazalar quyidagi yakuniy xulosani qayd qilish imkonini berdi:

-Sharqiy Orolbo‘yi hududi Turon pasttekisligining shimoli-sharqiy qismida uzoq muddatli geologik jarayonlar va yer osti tebranishlari natijasida shakllangan.

-Mintaqaning geografik o‘rni strategik jihatdan nihoyatda qulay bo‘lib, boy tabiiy resurslar zaxirasiga ega bo‘lgan sernam tekislik hisoblangan.

-Mazkur hudud Janubiy Orolbo‘yi bilan geologik jihatdan yaxlit bo‘lsa-da, geografik xususiyatlari va iqlim sharoiti bilan undan tubdan farq qiladi.

-O‘rta Osiyoning eng yirik daryolari bo‘lmish Amudaryo va Sirdaryo minglab yillar mobaynida o‘z suvi tarkibidagi mineral moddalarni yotqizishi natijasida mintaqa antropogen landshafti hamda Orol dengizining janubiy qirg‘oqlarini shakllantirishda beqiyos rol o‘ynagan.

Xulosalar quyidagi tarzda qayd qilindi: O‘rta Osiyo mintaqasining asosiy qon tomirlari bo‘lmish qadimiy va eng yirik daryolar – Amudaryo va Sirdaryo nafaqat muhim suv manbai, balki hudud relyefini shakllantiruvchi asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu daryolar o‘z oqimi davomida olib kelgan turli xil mineral moddalar, loyqa va unumdor allyuvial cho‘kindilarni minglab yillar mobaynida yotqizishi natijasida Markaziy Farg‘ona vodiysining boy tuproq qatlami va noyob geografik tuzilishi shakllanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, Sirdaryo va Amudaryo tizimlari Orol dengizining janubiy va sharqiy sarhadlarini, keng qamrovli delta hududlarini barpo etishda beqiyos o‘ringa ega bo‘lib, bu jarayon mintaqaning o‘ziga xos ekotizimi va qadimiy jamoalar yashashi uchun qulay bo‘lgan antropogen landshafti vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Shu ilmiy dalil va xulosalardan kelib chiqib, kelgusi tadqiqotlar uchun quyidagi nazariy va amaliy **takliflar** ilgari suriladi:

1. **Hududlarni qiyosiy tadqiq etish:** O‘rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlarida yuz bergan qadimiy paleotektonik harakatlarni mintaqaning janubiy tarixiy-geografik hududlaridagi o‘zgarishlar bilan integratsiyalashgan holda o‘rganish. Bunda, asosan, relyefdagi tebranishlarning inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan antropogen landshaftga va mintaqa ekologiyasiga ko‘rsatgan ta'sirini multidisiplinar yondashuv (arxeologiya, geologiya, paleogeografiya) asosida keng tarzda tadqiq etish.
2. **Daryolarning sivilizatsion ahamiyatini yoritish:** Amudaryo va Sirdaryo havzalarining O‘rta Osiyo markazida, xususan, qadimgi O‘zbekiston hududida o‘rnashgan aholining ilk sivilizatsiya o‘choqlarini yaratishidagi o‘rnini yoritish.

Ushbu daryolarning qadimgi aholi joylashuvi, xo‘jalik turlarining shakllanishi, migratsion jarayonlar va umuman insoniyat taqdiridagi strategik hamda tarixiy ahamiyatini chuqur tahlil qilish.

3. **Tarixiy jarayonlarni bugungi kun bilan bog‘lash:** Hozirgi davrdagi global iqlim o‘zgarishlari va ekologik muammolar sharoitida mintaqamizning ikki buyuk azim daryosi suv rejimining tarixiy taraqqiyot bosqichlari va harakat tarixini yoritish. Daryolarning o‘tmishdagi tabiiy holati va qadimgi o‘zanlari tarixini o‘rganish orqali bugungi kundagi Orolbo‘yi ekologik inqirozlariga ilmiy asoslangan yechimlar qidirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма. // МХЭЭ. – М.: 1968. – Вып. 8.
2. Виноградов А.В. Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья. // ТХАЭЭ. – М.: Наука, 1981. – Т. XIII.
3. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья. // ТХАЭЭ. – М.: Наука, 1977. – Т. X.
4. Кесь А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально-дельтовых равнин Амударьи. // В кн: Культура и искусство Древнего Хорезма. – М.: Наука, 1981.
5. Вайнберг Б.И. Экология Приаралья в древности и средневековье. // Этнографическое обозрение. – М.: Наука, 1997. – № 1.
6. Левина Л.М. К истории исследований Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в Восточном Приаралье. – М.: ИВЛ, 1998.
7. Вайнберг Б.И. Этногеография Турана в древности. – М.: Вост. лит. РАН, 1999.
8. Yusupov A. Orolbo‘yi ilk sak qabilalari tarixi. – Buxoro: Durdona, 2023.